
“YUQORIQISHLOQ” MFYDAGI 1 KM.LIK ICHKI KO‘CHA ASFALT QILINDI

Ayni kunlarda Toshloq tumanidagi mahallalarda olib borilayotgan keng ko‘lamdagi bunyodkorlik ishlarida tadbirkorlar ham homiylik yo‘li bilan o‘z hissalarini qo‘shmoqdalar.

2-sektor hududidagi “Yuqoriqishloq” MFY aholisi tuman prokuroriga “Ahillik” ko‘chasini asfaltlashtirishni so‘rab murojaat qilgan edilar. Muammoni o‘z vaqtida bartaraf etish maqsadida sektor rahbariyati tashabbusi bilan homiylik jalb etilib, hozirda ushbu ko‘chada asfaltlash ishlari olib borilmoqda.

Mahalla ahlini aytishicha, yoz, qish faslida ko‘chalar loy va chang bo‘lib, ko‘plab qiyinchiliklarni keltirib chiqarar edi. Yangi asfaltdan so‘ng esa ko‘chalar tekis va ravon bo‘lganligi, barchani mamnun etganligini ta’kidlamodalar.

2023-06-15 16:11:40